




2022- yilning yanvar-fevral oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Xorazm viloyatida jami **476,1** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **100,3 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **11,5** mlrd soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **54,4 %** ga kam bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **2,0 %** punktga kamaydi va **2,4 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



OʻSISH SURʼATI **54,4 %**

2021- yil
yanvar-fevral


2022- yil
yanvar-fevral

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **28,0 %** yoki 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **27,3 %**), Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **33,4 %** yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **5,4 m.**) va Xiva tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,5 %**, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **74,6 %**) ga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarini bajarigan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **69,7 %** to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-fevral oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,3 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan **102,4 %** ni tashkil etgan holda **331,8** mlrd so'm miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **27,9 %** ni tashkil etdi yoki **132,8** mlrd so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish **102,5 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**

o'sish sur'ati, % da


ulushi, % da



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **32,1** mlrd so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **444,0** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,7 %** va **93,3 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

ulushi, % da





**2022- yilning yanvar-fevral oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd so'm	ulushi % da	mlrd so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati	476,1	32,1	6,7	444,0	93,3
Urganch sh.	104,9	9,8	9,4	95,1	90,6
Xiva sh.	33,0	2,4	7,3	30,6	92,7
tumanlar:					
Bog'ot	31,6	2,0	6,5	29,6	93,5
Gurlan	26,6	0	0	26,6	100,0
Qo'shko'pir	30,2	2,0	6,7	28,2	93,3
Urganch	48,5	3,4	7,0	45,1	93,0
Hazorasp	26,9	2,4	9,0	24,5	91,0
Tuproqqal'a	16,4	2,1	13,0	14,3	87,0
Xonqa	32,3	1,6	5,0	30,7	95,0
Xiva	54,9	0	0	54,9	100,0
Shovot	28,6	2,6	9,1	26,0	90,9
Yangiariq	22,4	1,8	7,9	20,6	92,1
Yangibozor	19,9	1,9	9,3	18,0	90,7

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar-fevral oylari

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 75,8 % yoki **361,0** mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

75,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **11,0** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.

2,3 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **225,1** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 67,8 % ni tashkil etdi.

67,8 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **124,9** mlrd so'mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 94,0 % ni tashkil etdi.

94,0 %




**2022- yilning yanvar-fevral oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd so'm)
Xorazm viloyati	476,1	100,3	361,0
Urganch sh.	104,9	101,0	85,0
Xiva sh.	33,0	100,7	25,1
tumanlar:			
Bog'ot	31,6	101,7	19,0
Gurlan	26,6	101,4	21,1
Qo'shko'pir	30,2	98,7	15,1
Urganch	48,5	102,7	35,0
Hazorasp	26,9	101,7	19,1
Tuproqqal'a	16,4	87,7	11,7
Xonqa	32,3	101,0	23,7
Xiva	54,9	98,2	45,2
Shovot	28,6	101,0	26,2
Yangiariq	22,4	100,5	16,7
Yangibozor	19,9	103,1	18,2

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2022- yil yanvar-fevral oylarida**

mld s'om

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati	476,1	338,8	95,0	42,4
Urganch sh.	104,9	64,7	29,9	10,2
Xiva sh.	33,0	20,0	9,9	3,1
tumanlar:				
Bog'ot	31,6	24,8	4,3	2,5
Gurlan	26,6	21,0	1,5	4,2
Qo'shko'pir	30,2	23,0	6,1	1,1
Urganch	48,5	28,7	12,5	7,4
Hazorasp	26,9	24,0	2,5	0,4
Tuproqqal'a	16,4	7,8	6,9	1,6
Xonqa	32,3	23,9	4,5	3,9
Xiva	54,9	45,6	7,5	1,9
Shovot	28,6	20,9	2,9	4,8
Yangiariq	22,4	19,9	2,3	0,1
Yangibozor	19,9	14,4	4,2	1,3

2022- yilning yanvar-fevral oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd so'm

Urganch sh.

104,9



Xiva

54,9



Urganch

48,5



Xiva sh.

33,0



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Urganch shahri (104,9 mlrd so'm), Xiva (54,9 mlrd so'm), Urganch (48,5 mlrd so'm) tumani hamda Xiva shahriga (33,0 mlrd so'm) to'g'ri keladi.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22